

## INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILARDA FONETIK XATOLARNI TUZATISH UCHUN MASHQLAR

**Botirova Muhlisa Dilshod qizi**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Xorijiy tillar fakulteti 3-kurs, talabasi.*

**Qurbonova Nasiba**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Xorijiy tillar fakulteti, o'qituvchisi.*

**Abstrakt:** *ushbu maqolada ingliz tilini o'rganuvchilarda yuzaga keladigan fonetik xatolarni tuzatish uchun samarali mashqlar va ularni qanday qo'llash usullari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *metod, kommunikativ yondashuv, interfaol o'yinlar, kviz kartochkalari, pantomima, tezkor javob, rasmlar so'zlaganda*

Mamlakatimiz istiqbolga erishgan dastlabki kunlardan oq aholi o'rtasida chet tilini o'rganish salohiyatini oshirish uchun qator tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti

I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Biz farzandlarimizga chet tillarni o'rgatishni takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli va mazmun-mohiyat bo'yicha katta ishlarni boshladik. Jumladan 2012-yilda shu qisqa davrda bu ishlarimiz o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Boshlangan ishlarimizni izchil davom ettirsak, nasib etsa, bu borada ham "portlash effekti"ga erishamiz". Bizning 1-Prezidentimiz I.A.Karimovning chet tillar sohasini takomillashtirish masalalariga oid Qarori asosida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-sonli qarori bilan uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti tasdiqlandi. Ushbu standart talablariga ko'ra umum-ta'lim maktablarining 1-4-sinflari uchun A1 "Chet tilini o'rganishning boshlang'ich darajasi" va 9-sinf yakunida A2 "Chet tilini o'rganishning tayanch darajasi"da chet tillarni bilish me'yorlarini belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, o'quv rejaga 1-4-sinflarga bosqichma-bosqich haftasiga 2 soatdan, yiliga 68 soat qo'shimcha kiritildi. Shuningdek, o'quvchilarga chet tili bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mezonini aniq belgilab berildi. Ingliz tilini barcha yoshdagil o'rganuvchilar birdek sevib o'rganishmoqda, chunki ingliz tili bu xalqaro til bo'lib, ko'pchilik davlatlarda ichki va tashqi savdo aloqalari, turizm sohalari aynan ingliz tilidagi muzokaralar asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ingliz tilini o'rgangan inson boshqamillat vakillari bilan birorta qiyinchiliklarsiz fikr almasha oladi. Ma'lumki, nutqiy muloqot ayrim belgilar, so'zlar, so'z birikmalari va nutqiy konstruksiyalar asosida amalga oshiriladi, bular esa turli tillarda turlichadir. Ko'plab ingliz tili o'rganuvchilari nutq jarayonida so'zlarni xato talaffuz qilish orqali suhbatdoshiga o'zi ifodalomoqchi bo'lgan fikrni yetkazdirib bera olmaydi. Albatta, buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo asosiy sabablardan biri shuki bu 2 til grammatikasi va fonetikasi o'rtasidagi farqdir. Masalan, O'zbek tili va ingliz tili fonetikasida katta farqning mavjudligi til o'rganuvchilarning talaffuzida ko'plab

soʻzlarni xato talaffuz qilinishiga olib kelyapti. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun til oʻrgatish jarayonida noanʻanaviy darslar tashkil qilib, interfaol oʻyinlardan foydalanish kerak. Bu oʻqitish metodlari nafaqat oʻquvchilarni balki ular oʻrtasida raqobatasosida darsni yanada qiziqarliroq boʻlishiga, hamda oʻquvchilarning ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Boshlangʻich sinflarda asosan kommunikativ yondashuv orqali ilk nutqiy koʻnikmalar shakllantirib boriladi, bunda bolalar qoʻshiqlari, sheʼrlar, tez aytishlar muhim oʻrin tutadi. Darsda faol harakatli oʻyinlardan foydalanish orqali koʻzlangan natijalarga erishish mumkin. Chet tili oʻqitishning ogʻzaki jihatdan ilgarilab ketishi tamoyiliga koʻra til materialini oʻrganish ogʻzaki nutqda va oʻqishda bir vaqtda olib borilmaydi. Bu bosqichda til materialini oʻrganish quyidagi sxema asosida olib boriladi: tinglab tushunish (Listening)-gapirish (speaking)-oʻqish (reading)-yozish (writing). Metodist olim Yagang (1994) ning fikricha ingliz tilini oʻrganayotgan tinglovchi oʻziga bir muncha tanish boʻlgan aksentni esda saqlab qoladi, unga koʻnikadi, natijada boshqa aksentda gapirilgan nutq unga gʻalati qovushmagandek eshitilishi mumkin. Tinglab tushunish ingliz tilini oʻzlashtirishga muhim belgisi hisoblanadi. Tinglanayotgan material tushunishga xalal beruvchi omillarni bartaraf etish mashgʻuloti jarayonida talabdan zukkolik, eʼtiborlilik, mehnat va tajriba talab etiladi. Yuqoridagi kabi muammolarni oldini olish uchun quyidagi interfaol oʻyin usullarini taqdim qilamiz:

- Kviz kartochkalari (Quiz Cards) bu biror mavzu oʻtib bòlingach, oʻtkaziladigan nazorat savollaridir. Bunday paytda tayyorlanish uchun savollar uyga berilmaydi. Savollar kartochkalarga yoziladi. 1-komanda kartochkalarga biror mavzu doirasidagi sòzlardan yozadi va uni 2-komandaga (spelling) tovushlar ketma-ketligida aytadi. 2-komanda esa berilgan sòzni tògri talaffuz qilishi kerak. Bu oʻyindan tovushlar mavzusini oʻtib bòlgandan sòng foydalanish qòl keladi. Oʻyin jarayonida har ikkala komanda ishtirokchilari sòzni tògri talaffuz qilish uchun sòzlar spelling qilinayotgan vaqtda diqqat bilan tinglaydi. Albatta, bu oʻyin oʻqituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Bu oʻyin oʻrganuvchilarning eshitish va tinglash qobiliyatini oʻstiradi.

- Pantomima (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bòlgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, til oʻrganuvchilar charchagan paytda foydalansa bòladi.

- Tezkor javob (Quick answers) bu usuldan takrorlash darslarida foydalanilsa bòladi. Bu oʻyinda oʻquvchilar sonining kòp bòlishi ahamiyatga molikdir. Oʻyin koptokcha orqali musiqa sadosi ostida boshqariladi. Oʻqituvchi 1-bòlib oʻyinni boshlab beradi. Bu oʻyinni aynan bògin va uning turlarini takrorlash mavzusida qòllansa oʻquvchilar xotirasida takrorlanayotgan mavzu yanada mustahkamlanadi. Koptokcha oʻquvchilar bòylab almashinadi. Musiqa tòxtatilganda koptokcha kimda qolsa, uni otgan oʻquvchi oʻsha oʻquvchiga quyidagicha urgu ostidagi sòzlarni 4 ta tur bòginda oʻqilishiga oid savol beradi. 1-oʻquvchi: A unlisi 2-tur yopiq bòginda nechanchi son tovush bilan talaffuz qilinadi va unga misol keltiring.

2-òquvchi: A unlisi 2-tur yopiq bòğinda 4-sondagi tovush bilan talaffuz qilinadi.

M: mat, cat, hat.

-Rasmlar sòzlaganda ( When pictures speak) bu usul ham ancha qulay bòlib, ingliz tilini òrgatishda, talaba, òquvchilarning oğzaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalaniladi. Bu kabi òyinlar til òrganuvchilarda sòz boyliklarini hamda tògri talaffuz qilish (pronunciation) oshirishga hordam beradi.

Xulosa òrnida shuni aytish mumkinki, ta'limning interfaol usullari òquv materiallarini òzlashtirish jarayonida òquvchilarni faol fikrlashga va mashq qilishga undaydigan usullardir. Ushbu usullar ijobiy ta'lim motivlarini shakllantiradi, òquvchilarning ijodiy qolbilyatlarini rivojlantiradi, òquv jarayoniga òquvchilarni faol jalb qiladi. Bu kabi òyinlar yordamida til òrganuvchi òquvchilar nafaqat ingliz tilidagi sòzlarni tògri talaffuz qilishga, balki ingliz tilini òz ona tilidek bilishga undaydigan omillardan biri sanaladi, hamda bunday interfaol usullar zerikarli va tanish bòlgan darslarni òquvchilar uchun qiziqarli qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÒYXATI:

1. " Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnal. 2020-yil, 8-son, 22-23-betlar.
2. "N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva " Ingliz tili darslarida qòllaniladigan interfaol usullar" ( Uslubiy qòllanma) "Navoiy" 2007-yil, 40-bet.
3. " Boshlang'ich sinflarda chet tillarni òqitishning psixologik asoslari va samarali texnologiyalari" ilmiy-metodik qòllanma, Toshkent 2015-yil, 7-bet.
4. "Uzluksiz ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal Toshkent 2020-yil, 1-son, 99-100-betlar.